




**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2021- YIL YANVAR-NOYABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalaridan 19 785,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,5 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 10,2 %, Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 21,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 4,6 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 45,1 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 172,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - noyabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 887,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,5 % ini tashkil etdi.

2020-yil yanvar-noyabr


84,4 %

2021-yil yanvar-noyabr

82,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,3 % (17,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,1 % (14,4 %) va quyi texnologiyalisi – 62,7 % (63,0 %)ni tashkil etdi.







■ 2020- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,8 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 7,9 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 210,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,9 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 120,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,1 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,5 % (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 67,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




2021- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 252,9 ming litr 100 % spirt (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 100,5 % ga o'sgan), 645,6 ming litr 100 % spirt (269,6 %), 130,8 ming tonna paxta tolasi (130,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	30,4	39,8	130,8
Azot, ming m ³	10,72	1,28	11,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	162,6	158,4	97,4
Aroq – ming litr 100 % spirt	251,7	252,9	100,5
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	239,4	645,6	269,6
Vino, ming litr	773,6	585,1	75,6
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	653,4	614,8	94,1
Paxta tiviti tona	2819,5	6395,3	226,8

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 5,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,0 % ga pasaygan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 7,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 210,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 565,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,1 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 278,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 5 552,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 127,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 19,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 990,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 78,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 132,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 530,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 75,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 31,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 164,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 560,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	426,7	408,3	- 18,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3393401,0	5945871,0	2552470,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 165,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-noyabr	2021- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	12 544,1	36 564,7	24 020,6
To'qimachilik chiqindilari, tonna	56,3	27,9	- 28,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	51,1	94,3	43,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 291,5 % ni va Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar- 1,8 (bar.) ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12 515,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil
yanvar-noyabr

35,8%

2021- yil
yanvar-noyabr

38,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020- yil
yanvar-noyabr

64,2%

2021- yil
yanvar-noyabr

61,8%





Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,2 % (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 1,7 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 38,3 % ni, Urgut tumani 10,4 % ni, Samarqand tumani 9,2 % ni, Toyloq tumani 7,9 % ni hamda Jomboy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumanida (290,8 %) hamda Ishtixon tumanida (165,6 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 38,3 % shuningdek, Urgut 10,4 %, Samarqand 9,2 % ni, Toyloq tumanlarida 7,9 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % shuningdek, tumanlardan Urgut 14,4 %, Toyloq 9,0 % ni, hamda Samarqand tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

5 646,2 mlrd. so'm


2019- yil yanvar-noyabr

6 324,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-noyabr

7 739,3 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-noyabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,3 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 10,3 % ni, Pastdarg'om tumani esa 7,0 % ni tashkil etdi.




2 998,7 mlrd. so'm
2019-yil yanvar-noyabr

4 054,7 mlrd. so'm
2020-yil yanvar-noyabr

4 776,3 mlrd. so'm
2021-yil yanvar-noyabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 44,9 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 11,2 % ni, Samarqand tumani esa 7,6 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2019- yil

14 390,2 mlrd. so'm

2020- yil

15 815,9 mlrd. so'm

2021- yil

19 785,8 mlrd. so'm



2019- yil

106,3 %

2020- yil

100,7 %

2021- yil

110,2 %

Kattaqo'rg'on sh.

 86,4
317,7

Samarqand sh.

 109,3
8892,1

Toyloq

 134,0
997,5

Urgut

 101,0
1476,3

Nurobod

 109,7
235,0

Samarqand

 114,4
1501,4

Paxtachi

 118,0
385,4

Pastdarg'om

 103,4
743,6

Payariq

 105,2
415,3

Narpay

 98,1
518,6

Qo'shrabot

 98,2
73,2

Kattaqo'rg'on

 110,6
560,7

Ishtixon

 112,6
479,1

Jomboy

 106,2
2211,9

Bulung'ur

 106,7
493,0

Oqdaryo

 107,8
485,0

FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 244,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Nurobod tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (80,9 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (77,6 %), Urgut tumanida (74,3 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (1,8 %), Samarqand shahrida (24,8 %), Ishtixon (26,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 7 991 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 686 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,1 %) Samarqand shahriga, 1 151 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 760 tasi (9,5 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2019- yil
1 895 dona

2020- yil
1 476 dona

2021- yil
1 806 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2019- yil
6 010 dona

2020- yil
6 931 dona

2021- yil
7 991 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan